

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
M.Hamidjonov, N.Shodilbekov	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
B.Qurbonova	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
D.Xakimova	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
B.Umarov	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
Sh.Ro'zaliyev	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi.....	118
F.Yuldashev	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
A.Rajabov	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
Z.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
S.O.Omonova	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki.....	138
A.T.Tuychiyev	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.....	142
N.E.G'olibjon	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	149
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari.....	154

IQTISODIYOT

M.Adxamov	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
A.A.Oripov	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

FALSAFA

M.Qaxxarova, M.Raximshikova	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi.....	169
A.Sufiyev	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari.....	175
B.G'aniyev	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	181
S.Yuldashev	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
Sh.Usanov, E.Avazov	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni.....	190
M.Choriyeva	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
K.Saydazimov	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar.....	199
A.Mo'ydinov	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati.....	204

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF CRITICAL THINKING IN THE ERA OF DIGITAL TECHNOLOGIES

ВАЖНОСТЬ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Tuychiyev Adhamjon Tuxtaboyevich¹¹Tuychiyev Adhamjon Tuxtaboyevich

– Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Namangan muhandislik texnologiya instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy jahon mehnat bozori talablari doirasida ta'lim masalasidagi kemtiklar haligacha asosiy muammoligicha qolayotgani haqida so'z boradi. Bundan tashqari, yuqori saviyadagi, tizimli fikrlashga ega bo'lmagan mutaxassislar o'zlarida ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari bo'lmagan holda o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgan an'anaviy kasblarni egallab kelayotganliklari haqida fikrlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlashning shakllanish darajasi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatga, jumladan, bo'lajak mutaxassisning kasbiy sohadagi raqobatbardoshligiga bog'liqligi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, mashhur britaniyalik olim T.Chatfieldning raqamli texnologiyalar haqidagi tushunchalarini takomillashtirish va ulardan ta'limda foydalanish borasidagi metod va maslahatlariga katta ahamiyat qaratilgan. Qolaversa, mazkur ishda 21-asrda muvaffaqiyatga erishish uchun maktablar, universitetlar va kompaniyalar uchun yaxshi mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, ta'lim muassasalari va korxonalar uchun onlayn kurslardan foydalanish va yaratish yaxshi rivojlangan tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga bog'liqligi o'rganilgan.

Abstract

The article deals with the problem that the modern world labor market again challenges education: familiar professions are losing relevance, while specialists with developed systems thinking, which is impossible without creativity and the ability to critically evaluate information, are becoming very popular, and developed soft skills are even valued more than professional skills. It is also analyzed that the degree of formation of critical thinking in any situation depends on personal and social success, including the competitiveness of the future specialist in the professional field. At the same time, much attention is paid to the methods and advice of the famous British scientist Tom Chatfield about how to improve the understanding of digital technologies and their use in education. It has been established that the preparation of good professionals in schools, universities and companies, as well as the use and creation of online courses for both academic institutions and businesses for success in the 21st century, depends on well-developed critical thinking skills.

Аннотация

В статье рассмотрена проблема, что современный мировой рынок труда вновь бросает вызов образованию: привычные профессии теряют актуальность, в то время как специалисты с развитым системным мышлением, которое невозможно без креативности и умения критически оценивать информацию, становятся весьма востребованными, и развитые soft skills ценятся даже больше, чем навыки, связанные с профессиональной деятельностью. А также проанализировано, что от степени сформированности критически мыслить в любой ситуации зависит от личностного и социального успехов, включая конкурентоспособности будущего специалиста в профессиональной сфере. В то же время, в работе большое внимание уделено на методы и советы знаменитого Британского ученого Тома Чатфилда по улучшению понимания цифровых технологий и их использования в образовании. Установлено, что подготовка хороших специалистов в школах, университетах и компаниях, а также использование и создание онлайн-курсов как для академических учреждений, так и для бизнеса для успеха в 21 веке зависит от хорошо развитых навыков критического мышления.

Kalit so'zlar: shaxs, tanqidiy fikrlash, oliy ta'lim, raqamli davr, 21-asr ko'nikmalari, usullar, maslahatlar.

Keywords: personality, critical thinking, higher education, digital age, 21st century skills, methods, tips.

Ключевые слова: личность, критическое мышление, высшее образование, цифровой век, навыки 21 века, методы, советы.

KIRISH

Respublikamizda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish borasida Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bandida raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ... ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, ...

milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish, ... ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;" alohida belgilab berildi.¹

Bugungi kunda butun dunyoda ta'limning yangi mazmuni masalasi kun tartibida turganligi hech kimga sir emas. 2005-yilda Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD-IHRT) homiyligida "*Kompetensiyalarni aniqlab olish va tanlash: nazariy va konseptual asoslar – DeSeKo*" xalqaro fanlararo dasturi ishga tushirilgan. Hozirgi vaqtda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha turli mamlakatlarda tajribalar olib borilmoqda va ular faol rivojlantirilmoqda.²

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bugungi kunga kelib raqamli inqilob bizning shaxsiy va professional hayotimizga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur jarayon tez orada sekinlashadiganga o'xshamaydi. 5G va hattoki 6G simsiz texnologiyalarining paydo bo'lishi, sun'iy aql yoki intellektning yutuqlari va innovatsion raqamli platformalarning ko'payishi – bu eksponensial ko'tarilishning boshlanishi deyish mumkin.

Ko'pchilik sun'iy aql atamasini eshitganda, birinchi navbatda ko'z oldiga robotlar keladi. Ammo robotlar sun'iy aqlning kichik bir ko'rinishi hisoblanadi. Sun'iy aqlning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Texnologiyalar rivojlanib borgan sari sun'iy aqlni belgilaydigan oldingi ko'rsatkichlar eskirib bormoqda va uning qudrati kuchaymoqda. Sun'iy aql ijtimoiy hayotimizni to'la egallamagan bo'lsa-da, kundalik turmushimizda faol ishtirok etmoqda. Misol uchun, Google eng ko'p izlangan buyruqlarni eslab qolish va tavsiya qilish imkoniga ega. Shu kabi ulkan ma'lumotlarni yig'ayotgan korporatsiyalar ularni qayta tahlil qilish orqali siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga faol aralashmoqdalar. Biroq, sun'iy aql algoritmlarining takomillashib borishi yaqin yillarda aqliy mehnat ishchilarini ofislardan siqib chiqarishi mumkin.³

Bunday misli ko'rilmagan taraqqiyot dunyosida kim va qanday qilib o'zgarishlar qilish va muvaffaqiyatga erishish mumkin? Albatta insonlar. Odamlarda tanqidiy fikrlash borasida ajoyib va betakror iqtidor va qobiliyat borki, qaysiki bular bizga narsalarga qarash va ularni xolisona tahlil qilish imkonini beradi. Biroq, bu yerda skeptitsizm ham rol o'ynaydi. Tanqidiy fikrlash orqali biz narsalarni haqiqiy qiymatda qabul qilishdan bosh tortamiz va har qanday narsani haqiqat deb xulosa qilishdan oldin uni o'rganamiz va sinab ko'ramiz. Bu, shuningdek, har qanday obyekt haqida ilk tasavvurlarimizdan tashqariga chiqishga va oqilona, xolis mulohazalar shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, hozirgi davrda dunyo pandemiya balosini boshidan o'tkazmoqda. Biz, ehtimol, bu inqirozning dastlabki bosqichidamiz. Bu qachon tugashini yoki COVID davridan keyingi dunyo qanday ko'rinishini hech kim aniq bilmaydi. Beshinchi va oltinchi to'lqinli ta'sirlarning ko'pchiligi virusning o'zi ham, ijtimoiy masofa va izolyatsiya qilish choralarining iqtisodiy va psixologik ta'siri nuqtai nazaridan hamon noaniq. Biroq, bu o'tgan yillardan o'rganish kerak bo'lgan bir nechta saboqlar, xolos.

Keling, mavzuga qaytsak-da, yana bir bor tanqidiy fikrlash haqida eslaylik, u o'zi nima? Tanqidiy fikrlash – bu kiruvchi ma'lumotlarga va o'z pozitsiyasiga shubha qilish, aniq va oqilona fikrlash, faktlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishni izlash va kuchli dalillarni shakllantirish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlashning asosi – mulohaza yuritish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlovchilar biror narsa yoki hodisani haqiqat deb qabul qilishdan ko'ra, unga savol axtarishadi va berishadi.

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy axborot oqimi juda ham bepoyon – yangiliklar, reklama, turli foydali va foydasiz ko'rsatuvlar, sifatli va sifatsiz kontentdagi tashviqotlarni o'zida birlashtirgan cheksiz xabarlar oqimidir. Bunda faqatgina oqilona, vazmin, kerak bo'lsa tezkor qaror

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish konseptsiasini tasdiqlash tufarisida” 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son Farmoni // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Т., 2019.

² <https://vbudushee.ru/upload/iblock/f30/f30f7b26a9c431f523d437d5d85857b1.pdf>

³ <https://m./news/2021/06/30/industry-40>

qabul qiladigan yoki fikr yuritadigan shaxsgina ushbu oqimda “jon saqlab qolishi” mumkin bo‘ladi. Agar siz hamma yozilgan va aytilgan gaplarga ishonsangiz, aldanishingiz tabiiy. Misol uchun, yangiliklarda ular anonim manbaga ko‘ra, bir kompaniyaning aksiyalari tez orada arzonlashishini yozishadi. Agar yangilik ishonchsiz bo‘lib chiqsa va siz aksiyalarni sotsangiz, pullaringizni yo‘qotasiz. Barcha ma‘lumotlar ham haqqoniy bo‘lmasligi mumkin. Tanqidiy fikrlash esa shu kabi yolg‘onni rostdan, alohida fakti fikrdan ajratishga yordam beradi.

Texnologiya hamma narsalarni murakkablashtiradi. Algoritmilar va kontent (mazmun)ni shaxsiylashtirish bizni ma‘lumot pufakchalariga eltib qo‘yadi. Bu foydalanuvchi faqat o‘zi yoqtirgan kontentni ko‘radigan holat. Ijtimoiy tarmoqlar (Youtube, Telegram, Facebook va hakozolar), qidiruv tizimlari (Google, Yahoo, Yandex, Rambler kabilari) va cheksiz ilovalarning algoritmilari – afzalliklar, qidiruv tarixi, joylashuvi va boshqa foydalanuvchi ma‘lumotlarini tahlil qiladi. Oqibatda, atrofimizda bizning nuqtai nazarimizga zid bo‘lgan kontent “pufakchalari” paydo bo‘ladi. Shunday qilib, biz intellektual izolyatsiyaga tushib qolamiz.

E‘tiborli jihati shundaki, tanqidiy fikrlash allaqachon yuqori darajadagi faoliyatga aylanib ulgurgan. So‘nggi yillarda ko‘pchilik insonlar haqiqatan ham qiyin qarorlar qabul qilishga majbur bo‘lmoqda: aytaylik, biznesni yopamizmi yoki davom ettiramizmi? Ko‘chaga chiqqanda hammamiz niqob kiyishimiz kerakmi? Oddiy sanitariya-gigiyena sharoitlari bo‘lmagan taqdirda ham ishga kelishimiz kerakmi? Ish beruvchimiz bizdan talab qilgani uchun ishga qaytishimiz kerakmi va hokazo.

Tanqidiy fikrlashni keng ma‘noda fikr va to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatni shakllantirish uchun ma‘lumotlarni oqilona va xolis tahlil qilish, deb tahrirlash mumkin. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti, Jahon Iqtisodiy Forumi va boshqalar ta‘kidlaganidek, tanqidiy fikrlash talabalarni bugungi va ertangi ishlarga tayyorlash uchun e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan 21-asrning eng muhim ko‘nikmalaridan biridir” (4 ta K dan biri). Biz duch keladigan yagona muammo shundaki, bizning ta‘lim tizimlarimiz tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini faol ravishda rivojlantirish uchun mo‘ljallanmagan.

So‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab shaxslar va tashkilotlar ta‘lim tizimiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishga harakat qilmoqda. Masalan, Khan Academy, Coursera va FutureLearn kabi ommaviy ochiq onlayn kurslar o‘rganish va o‘qitish tizimlarini o‘zgartirib yubordi. Bundan tashqari, boshqa ko‘plab ta‘lim tashkilotlari va resurslari butun dunyodagi ta‘lim oluvchilar uchun eng yaxshi tajriba va imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Biroq, oldinda hali qilinadigan ishlar talaygina. Oxirgi 100 yil ichida telefonlar, kompyuterlar va mashinalar qanchalik o‘zgartirganini tasavvur qiling.

Xan Akademiyasi asoschisi Salmon Xon ta‘kidlaganidek, “an’anaviy va onlayn ta‘lim o‘rtasidagi muvozanat bu inqirozning *“kumush qoplamasi”* bo‘lishi mumkin”. Darhaqiqat, bizda odamlar qanday bilim olishlari va umuman ta‘limning yangi modelini qurish haqida qayta ko‘rib chiqish imkoniyati mavjud. Onlayn yoki masofaviy yohud shaxsiy tajribalarga asoslangan an’anaviy ta‘lim turimi, bu haqda qayg‘urish uchun Covid-19 pandemiyasi yaxshigina saboq bo‘ldi, deb bemalol ayta olamiz.

MATERIAL VA METOD

Tanqidiy fikrlashni o‘rganish jarayoni oson ish emas. Bu xuddi chet tilini o‘rganishga o‘xshaydi – avvaliga hamma narsa murakkab va tushunarsiz bo‘lib tuyuladi, ammo mantiqni tushunib borgan sari bu osonroq kechadi.

Chet tilini o‘rganish uchun biz imkon qadar til muhitiga sho‘ng‘ib ketamiz. Misol uchun, o‘yinlar bilan til o‘rganish qiyin ish emas, aksincha qiziqarli sarguzasht kabi ko‘rinadi. Tanqidiy fikrlash texnikasi bilan vaziyat yanada foydali – biz ularni qo‘llash juda muhim bo‘lgan muhitga allaqachon tushib qolganmiz. Boshqa vazifa – tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘z algoritmini ishlab chiqish. Bular siyosiy matnlarda ko‘proq evfemizmlarni va televideniye yangiliklaridagi jargonlarni topish uchun asosiy manbalarni qidiradigan mikrotadqiqotlar bo‘lishi mumkin. Sizning vazifangiz tanqidiy fikrlashning biron-bir texnikasini olish va u bilan turli kontekstlarda ishlash, uning barcha imkoniyatlarini tushunishga harakat qilishdir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muayyan hollarda tegishli ko‘nikmalarni qo‘llash lozim. Avval biror yangilikdagi axborotni shubha ostiga oling, tadqiqotlardagi havolalarni yoki mutaxassislarining malakasini tekshiring. Shundan so‘ng tanqidiy fikrlashning quyidagi vositalari bilan ishlashni o‘rganing, ya‘ni ular:

- axborotni tekshirish usullaridan foydalanish;
- kognitiv buzilishlarni hisobga olish;
- argumentlashda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik;

- axborot pufakchalaridan chiqish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis va norasmiy ta'lim bo'yicha murabbiy, fasilitator Yelena Plexovaga ko'ra, ma'lumot bilan ishlaganda, "ichingizdagi" matnni ko'rib chiqing – diqqat bilan o'qing, diqqat bilan tinglang, mantiqiy nomuvofiqliklarni qidiring, manipulyatsiyalarni topishni o'rganing⁴.

Tanqidiy fikrlash nazorat ro'yxati (chek-list).

"5W+H" savollar tizimi yangi ma'lumotlarni tekshirishning asosiy metodi hisoblanadi. Bu barcha kiruvchi ma'lumotlarni tekshirishingiz kerak bo'lgan savollar tizimidir. Javoblar manbaga qanchalik ishonishingiz mumkinligini va ushbu ma'lumotlar asosida qanday qarorlar qabul qilishingiz kerakligini tushunishga yordam beradi.

Who... (Kim)?

will benefit?

makes a key decision?

will be affected the most?

is one of the key players?

What ... (Nima, qanday)?

are advantages and disadvantages?

are counterarguments?

are best/worst possible scenarios?

are obstacles to our actions?

Where... (Qayerda)?

can you experience this in real life?

do you encounter similar concepts and situations?

do you get help?

are there areas for improvement?

When... (Qachon)?

is this acceptable/unacceptable?

will the result be visible?

is possible expect changes?

should I ask for help?

Why... (Nima uchun)?

is it important to me/others?

is this the best/worst case scenario?

should people know about it?

did we let it happen?

How... (Qanday qilib)?

does it correlate with similar data?

can this affect?

did we get this information?

to find a safe approach?

Kognitiv buzilishlar. Kognitiv buzilishlar – noto'g'ri fikrlashga asoslangan beihitoyir ongsiz fikrlash modelidir. Bunday mulohazalar bizni oqilona qarorlar qabul qilishimizga to'sqinlik qiladi. *Misol uchun*, kognitiv tarafkashlik ta'sirida obyektiv texnik xususiyatlariga ko'ra, biz taqdimot va tijorat haqidagi xotiralarimiz asosida yangi smartfonni tanlashimiz mumkin. Kognitiv buzilishlar bizning "ichki nutqimiz"dagi bahsli xatolardir.

Diqqat-e'tiborning tizimli xatosi – bu idrokimizdagi takrorlanadigan fikrlarga bog'liqligida paydo bo'ladi. Biz ko'pincha boshqa variantlarni e'tiborsiz qoldirib, ilgari ko'rgan yoki eslab qolgan narsalarni sezamiz.

Misol. Agar siz uzoq vaqtdan beri ish joyini o'zgartirish haqida o'ylayotgan bo'lsangiz, unda siz hamkasblarning qobiliyatsizligiga, ularning xarakteri sizga mos tushmayotganligiga va tashkilot tomonidan qo'yilayotgan kamchiliklarga e'tibor qaratasiz. Aslida, aksincha ishda samaradorlik ko'rsatkichlari yuqori va mijozlarda ham minnatdorlik hissini payqash mumkin.

⁴ <https://trends.rbc.ru/trends/education>

Tuyg'ularning uyg'unligi – bu ma'lum his-tuyg'ularni boshdan kechirgan holda faktlar va hodisalarni eslab qolish qobiliyati. Hissiy motivlar bizning oldingi tajribalarimiz bilan bog'liq turli xil mazmunli assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi.

Misol. Kechqurun bir piyola issiq choy bilan o'zingizni xotirjam, qulay va iliq his qilasiz. Bunday kayfiyat oilaviy uchrashuvlar va eng yaxshi do'stlar bilan kechalar haqidagi xotiralarni uyg'otishi mumkin.

Harakatsizlikga yetarlicha baho bermaslik – harakatsizlik oqibatlarini, uni harakat natijasi bilan taqqoslab, kam baho berish tendensiyasidir. Xuddi shunday oqibatlarga olib keladigan harakat va harakatsizlik o'rtasida tanlov qilishda odamlarda harakatsizlikni tanlash ehtimoli ko'proq.

Misol. Ba'zi ota-onalar farzandlarini emlashdan bosh tortishadi. Harakatsizlik – emlamaslik, harakat – bolani emlash. Zero, kasallanish xavfi emlash asoratlariga ko'ra ancha yuqori bo'lishi mumkin.

NATIJA VA TAHLIL

Jahon iqtisodiy forumiga ko'ra, 2025-yilga borib tanqidiy fikrlash eng muhim va talab qilinadigan o'nta ko'nikmaga kiradi. Kelajakda murakkab axloqiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilish uchun siz hozirdan turli axborot bilan ishlashni o'rganib borishingiz va o'z shaxsiy fikrlashlaringiz haqida qayg'urib borishingiz kerak bo'ladi.⁵

Biroq, tanqidiy fikrlash muammoga davo yoki yechim emas. Shuningdek, soxta xabarlar, yangiliklar, noto'g'ri ma'lumotlar va noto'g'ri fikrlashlarga qarshi yagona universal do'kon ham emas. Tanqidiy fikrlash kelajakda noaniqlik va mavhumlik bilan kurashishingizga yordam beradigan fikrlash uchun asos yaratadi.

Tom Chatfield, taniqli britaniyalik yozuvchi va faylasuf, yangi texnologiyalarga ixtisoslashgan raqamli texnologiyalar va undan siyosat va ta'lim borasidagi tushunchalarimizni o'stirish bilan shug'ullanadi [1]. U, ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish va amaliyotga joriy qilishga qiziqadi. Akademik muassasalar, jumladan, maktablar, universitetlar va kompaniyalarni rivojlantirish bo'yicha ish olib boradi, shuningdek bir qancha onlayn kurslarni yaratgan olim.⁶ Uning "Tanqidiy fikrlash" [2017] va "Bu kitob bilan yashang" [2015] kabi mashhur asarlari o'ttizdan ortiq tilga tarjima qilingan. Oksford professori, shuningdek, yirik texnologiya kompaniyalarida maslahatchi bo'lib ishlaydi. U XXI asrda muvaffaqiyat kaliti yaxshi rivojlangan tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga bog'liqligiga qat'iy ishonadi. Chatfield barcha narsalarni hamma joyda: ishda, maktabda, oliygohda va kundalik hayotda tahlil qilishga chaqiradi va buni qanday qilish va amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Muallif yolg'onni tan olish va haqiqiy dalillarni yolg'ondan ajratish mumkin bo'lgan belgilarni sanab o'tadi. Deduksiya, induksiya va abduksiya bilan tanishtiradi, xulq-atvor va aqliy strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, til va ritorikaning ulkan imkoniyatlari haqida gapiradi.

Shu bilan birga, T.Chatfieldning so'zlariga ko'ra, yozish ko'nikmalarini o'stirish raqamli shaklga o'tgan dunyoda muvaffaqiyatga erishishning ajoyib usuli hisoblanadi. Yaxshi yozish va yaxshi fikrlash bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Yozish fikrimizni aniqlashtirishga yordam beradi va ta'lim oluvchilarimizni bunga qanday qilib jalb qilish haqida o'ylashimizga yordam beradi [2]. Qisqa, ixcham fikrlarni taqdim etish bugungi dunyoda ustuvor vazifadir. Shu bilan birga, g'oyalarni to'g'ri tadqiq qilish, tahlil qilish va tizimlashtirish uchun vaqt sarflash ham kerak. Bu esa xabarni yanada samaraliroq qiladi. Texnik va sayqallangan yozuvlar talabalar tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi. Oxir oqibat, o'zimizga emas, balki o'rganuvchilarga e'tibor qaratish orqali biz ulardan maksimal darajada foydalanamiz. Shuningdek, u raqamli asrda muvaffaqiyat kaliti tanqidiy fikrlashga bog'liqligini tez-tez ta'kidlaydi. Bu ikki sababga ko'ra:

- birinchidan, tanqidiy fikrlash bizni avtomat va mashinalardan ajratib turadigan o'ziga xos fenomen. Kundan kunga texnologik vositalar tobora kuchayib bormoqda va ko'p jihatdan allaqachon bizdan o'tib ketdi ham. Lekin insonning ulardan ustunlik jihati shundaki, biz ularda hech qachon bo'lmaydigan ko'nikma va malakalarga egamiz.

- ikkinchidan, bu ko'nikma va malakalar muhim, chunki ular bizga doimiy axborot oqimidan to'g'ri va aniq ma'lumotni tanlab olish imkonini beradi. Mashinalar bizni ma'lumotlar botqog'iga botirmoqda, lekin shunga qaramay, biz ularni aniq va to'g'ri tahlil qilishimiz va baholashimiz va

⁵ <https://www.weforum.org/events/the-jobs-reset-summit-2020>

⁶ <https://tomchatfield.net/>

xulosalashimiz lozim. Va shu orqali tanqidiy fikrlash bizga manipulyatsiyadan qochishga yordam beradi.

T.Chatfild amalga oshirish oson bo'lgan ba'zi yaxshi odatlar va maslahatlarni ta'kidlab o'tadi. Misol uchun, bugungi jamiyatimizda raqamli texnologiyaning o'sish sur'ati tufayli vaqtni boshqarish juda muhim. Turli ko'rinishdagi raqamli chalg'itishlarning shovqinli ritmiga berilib ketmaslik bizga analitik ko'nikmalarimizni saqlashga yordam beradi. Yana bir maslahat. Bir vaqtning o'zida kompyuterda ko'p vazifalarni bajarishni to'xtatish lozim. Kompyuter ekranidagi bunday ortiqcha sahifa va yorliqlarning ko'payishi odatiy holga aylandi. Biz doimo bir ilovadan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisiga va hokazolarga o'tamiz. Bu bilan ish joyida biz bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajarishga moyillik ko'rsatamiz va bunga urinamiz. Biroq, oqibatda, aniqlik va samaradorlik qobiliyatini yo'qotamiz va bunga erisha olmaymiz. Faqatgina bitta vazifani bajarish va unga e'tiborni qaratish esa bizni yangi texnologiyalar zulmidan xalos qilishi mumkin.

Shu bilan birga, muallif "Tanqidiy fikrlashni charhlash" asarida bugungi raqamli texnologiyalar dunyosida qanday qilib samarali rivojlanish va ishlashni aniq misollar bilan ko'rsatib beradi. "Tinimsiz axborot oqimlari muhitida rivojlanib borish uchun biz imkon qadar tanqidiy fikr yuritishimiz va insoniyatning misli ko'rilmagan o'zaro bog'liqligi salohiyatidan to'liq foydalanishga imkon beruvchi strategiyalarni o'zlashtirishimiz kerak" – deydi Chatfild [3].

XULOSA

Umuman olganda, texnologiya kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalarida samaradorlikni oshirishga olib keladi. XIX-XX asrlarda sanoat inqilobi sodir bo'ldi, bunda inson mehnati o'rnini bosuvchi va ommaviy ishlab chiqarishga imkon beruvchi uskuna va mashinalar yaratildi. Xuddi shunday, XXI asr raqamli texnologiyalar va Internet narsalari (Internet of Things, qisqartmasi IoT) davrini boshlab berdi, bu yerda jamiyat aloqa qilish, o'rganish va ishlash uchun kremniy chiplari, mikroprotsessorlar va raqamli sxemalarga tayanadi. Biroq, sanoat inqilobi zerikarli qo'l mehnatini yengillashtirishga yordam bergan bo'lsa-da, raqamli texnologiyaning o'sishi va sun'iy aql yoki intellektning paydo bo'lishi tanqidiy fikrlash qobiliyatimizni rivojlanishiga tahdid solmoqda. Ko'pchilik sun'iy aql atamasini eshitganda, birinchi navbatda ko'z oldiga robotlar keladi. Ammo robotlar sun'iy aqlning kichik bir ko'rinishi hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanib borgan sari sun'iy aqlni belgilaydigan oldingi ko'rsatkichlar eskirib bormoqda va uning qudrati kuchaymoqda [4].

Bugungi raqamli asrda biz hayotimizning bir qismini kompyuter va turli gadjetlardan foydalangan holda sarf qilib yuboryapmiz, bu tabiiy, xoh u telefon va planshetlarda yangiliklarni o'qish, ijtimoiy tarmoqlarda soatlab suhbatlashish, xoh u loyihani yakunlashga harakat qilish bo'lsin va hokazo. Tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, bu atrofimizdagi dunyoni va bizga kelgan axborotni qanday qabul qilishimizni shakllantiradigan dasturiy ta'minot va algoritmlar bilan belgilanadi.

Jamiyatimizda duch keladigan jumboq – bu atrofimizdagi barcha raqamli vositalardan foydalanib qanday qilib tanqidiy fikrlash qobiliyatimizni kuchaytirishimiz mumkinligidir.

Tanqidiy fikrlash, so'nggi paytlarda biz bilgan Google qidiruvi kabi vositalar hisobiga pasayganga o'xshaydi. Bugungi jamiyatda, agar muammoga yechim kerak bo'lib qolsa, unga javob topish uchun ilgari egallangan ko'nikma va malakalardan emas, balki internetda qidiruv tizimidan foydalanish odatga aylanmoqda. Gap shundaki, kompyuterlar shubhasiz, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlaydi va algoritmlarni klinik aniqlik bilan qo'llaydi. Bunday qonuniyatlar va tendensiyalarni yirik hajmdagi ma'lumotlar bilan shug'ullanadigan "ulkan ma'lumotlar bazasi" ga kiritilganda, biz tanqidiy fikrlash yordamida qaror qabul qilishning ideal vositasiga ega bo'lamiz. Aslida, Google kabi kompaniyalar sun'iy aqlga milliardlab dollar sarmoya kiritmoqda. Bular bizga fikrlash va mushohada qilish uchun murakkab algoritmlar va katta ma'lumotlar yig'indisini qanday kuchga ekanini ko'rsatadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, kompyuterlar va avtomatlashtirish allaqachon o'z ishini, o'z vazifasini bajarib bo'ldi. Biroq, agar dunyoga mashhur Google va Amazonlar ilg'or kashfiyotlari bilan o'z niyatiga yetsa, biz tez orada murakkab jarayonlarni va yuqori malaka talab qiladigan vazifalarni odamlar emas, balki sun'iy aql orqali bajarilishiga guvoh bo'lamiz. Oqibatda, odamlar endi biror narsa yoki hodisani tahlil qilish, muhokama qilish va tanqidiy fikrlash bilan shug'ullanishi shart emas, degan fikr paydo bo'ladi. Bu ketishda odamlarni "odam" qiladigan asosiy xususiyatlar real hayotda shunchaki buyruqlarni bajarish uchun ishlatiladigan algoritmlarning kengaytmasi bo'lib qolishi hech gap emas.

Raqamli texnologiyalar nuqtai nazaridan olib qarasaq, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining samarali tanqidiy fikrlashni talabaga singdirishda – buning yaqqol isboti va natijasi uning tomonidan o'qitiladigan fan bo'yicha sifatli darsliklarni yaratish yoki ularni qayta nashr etish (shu jumladan, "Chet tili" fanidan joriy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda) uning samarali ilmiy va uslubiy faoliyati hisoblanadi. Ijodkorlik, individual yoki jamoaviy faoliyatlarning mevalari, bizning fikrimizcha, oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni maqsadli shakllantirishning eng muhim ko'rsatkichi va natijasidir. Yangi va o'rganilmagan kashfiyotlar esa o'z-o'zidan tanqidiy fikr ishtirokisiz mumkin emas, balki tanqidiy idrok etilgan va mavjud bilimlarning o'ziga xos uyg'unligi, o'ziga xos g'oya bilan birlashtirilgani oliy ta'lim yoki alohida fanning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Chatfield T. Live This Book. Paperback, 256 pages. Published in August 27th, 2015 by Penguin publication.
2. Chatfield T. Critical Thinking: Your Guide to Effective Argument, Successful Analysis and Independent Study. Kindle Edition, 320 pages. Published in October 28th, 2017 by SAGE Publications Ltd.
3. Chatfield T. How to Thrive in the Digital Age (The School of Life). Paperback, 149 pages. Published May 2012 by MacMillan. Series – The School of Life.
4. Cluster D. What is critical thinking? // Critical thinking and new types of literacy. Collection. Creator O. Varshaver-M.: TsGL, 2005.
5. Piaget J. The nature of intelligence. From the book of J. Piaget. Selected psychological works. International Pedagogical Academy, 1994.
6. Tuychiev A. The role and importance of critical thinking at teaching English. Article. – Journal "Herald Pedagogiki". Warsaw, Poland. March, 2021.
7. Чатфилд Т.. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение; Пер. с англ. — М.: Альпина Паблишер, 2019.
8. Дерюгина И.А. Цифровые навыки студентов для цифрового мира [Текст] / И.А. Дерюгина // Точка-старт: фундаментальные и прикладные исследования молодых. – 2020.
9. Халперн Д.Ф. Психология критического мышления. – 4-е междунар. издание. – СПб.: Издательство "Питер", 2000.